

## VOYAGA YETMAGAN MAHKUMLAR BILAN ISHLASH AMALIYOTI: XITOIY TAJRIBASI

*Sattorov Eldorjon Imomboy o'g'li*

*Navoiy viloyati Qiziltepa tuman ichki ishlar bo'limi  
jamoat xavfsizligi Probatsiya guruxi katta inspektori kapitan*

**Annotatsiy.** Maqolada Xitoyda voyaga yetmagan mahkumlar bilan ishlash amaliyoti tahlil qilingan. Xitoy kriminologiyasida qo'llanilayotgan "ijtimoiy uyg'unlashuv modeli" hamda uning o'smir mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, 2021–2024 yillardagi sud-huquq hisobotlari tahlil qilinib, o'smirlar jinoyatchiligini kamaytirishda ta'lim, tarbiya, probatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari roli ochib berilgan. Xitoyda o'smirlarga qarshi jinoyatlarda murosasiz yondashuv va og'ir jazo choralari qo'llanilishi ham ko'rsatib o'tilgan. Xulosa o'rnida, O'zbekiston amaliyoti uchun amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, mahkumlar, ijtimoiy uyg'unlashuv modeli, qayta ijtimoiylashuv, probatsiya, Xitoy tajribasi, retsdiv, ta'lim-tarbiya, qonunchilik, jazo siyosati.

**Аннотация.** В статье анализируется практика работы с несовершеннолетними осуждёнными в Китае. Особое внимание уделено применению «модели социальной интеграции» в криминологии КНР и её роли в ресоциализации подростков-правонарушителей. Рассмотрены данные судебно-правовых отчётов за 2021–2024 годы, а также меры по снижению подростковой преступности через образование, воспитание, пробацию и психологическую поддержку. Отдельно отмечается строгий подход Китая к преступлениям против несовершеннолетних и применение суровых наказаний. В заключение сформулированы практические рекомендации для совершенствования национальной практики в Узбекистане.

**Ключевые слова:** подростковая преступность, осуждённые, модель социальной интеграции, ресоциализация, пробация, опыт Китая, рецидив, образование и воспитание, законодательство, уголовная политика.

**Abstract.** The article analyzes China's practices in dealing with juvenile offenders. Special emphasis is placed on the application of the "social integration model" in Chinese criminology and its role in the resocialization of young offenders. Judicial and legal reports from 2021–2024 are examined, highlighting measures to reduce juvenile delinquency through education, probation, and psychological support. The study also outlines China's uncompromising stance on crimes against minors and

*the use of severe punishments. The paper concludes with practical recommendations for improving national practice in Uzbekistan.*

**Keywords:** *juvenile delinquency, inmates, social integration model, resocialization, probation, China's experience, recidivism, education and upbringing, legislation, criminal policy.*

Xitoyda jinoyat sodir etgan o'smirlar bilan ishlash siyosati davlatning keng ko'lamli ijtimoiy tarbiya konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladi. Bu siyosatning asosiy maqsadi – o'smirni jazolash emas, balki uni qayta tarbiyalash, ijtimoiy qadriyatlarga yaqinlashtirish va kelgusida to'g'ri yo'lga yo'naltirishdan iboratdir. Shu jihatdan Xitoy tajribasi ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular xalqaro standartlar bilan uyg'un tarzda rivojlantirilgan.

Avvalo, Xitoy qonunchiligida voyaga yetmaganlar uchun "tarbiyaviy choralar" tushunchasi asosiy o'rinda turadi. Jinoyat kodeksida 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar jinoiy javobgarlikka tortilmasligi, balki ta'lim-tarbiya muassasalariga yo'naltirilishi belgilangan [1]. 16–18 yosh oralig'idagi o'smirlarga nisbatan esa ozodlikdan mahrum qilish chorasi faqat so'nggi vosita sifatida qo'llaniladi. Bu esa BMTning "Voyaga yetmaganlarga nisbatan adolatni ta'minlash qoidalari" (Beijing Rules) va BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasida belgilangan "ozodlikdan mahrum qilishni eng oxirgi chora sifatida qo'llash" tamoyiliga mos keladi [2].

Ikkinchidan, Xitoyda o'smir mahkumlar uchun maxsus muassasalar – yuvenal tarbiyaviy koloniyalar tashkil etilgan. Bu muassasalarning asosiy vazifasi mahkum o'smirlarning savodxonligini oshirish, ularni kasb-hunarga o'rgatish va psixologik qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Xususan, Xitoy adliya organlari ma'lumotlariga ko'ra, bunday muassasalarda tahsil olgan o'smirlarning takroriy jinoyat sodir etish ko'rsatkichi ancha past darajada qolmoqda [3].

Uchinchidan, Xitoy tajribasida oila va maktabning ishtiroki muhim hisoblanadi. Sud organlari voyaga yetmagan jinoyatchiga nisbatan qaror chiqarish jarayonida uning oilaviy muhitini, ta'lim darajasini va tarbiya holatini hisobga oladi. Shu bilan birga, mahkum o'smirlarning ota-onalari va vasiylari ham tarbiyaviy jarayonga jalb qilinadi. Bu tizim Xitoy kriminologiyasida alohida nazariy va amaliy yo'nalish sifatida "ijtimoiy uyg'unlashuv modeli" (Social Integration Model deb yuritiladi [4]. Bu model o'smir jinoyatchilarga nisbatan jazo choralari qo'llashdan ko'ra ularni jamiyatdagi ijobiy munosabatlar tizimiga qayta integratsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [3].

Xitoy kriminolog olimlariga ko'ra, o'smir jinoyatchiligining asosiy sabablari: oilaviy muhitdagi muammolar (ota-onaning yetarli nazoratining yo'qligi, oiladagi mojarolar); ta'lim tizimidan uzilish; yomon muhit ta'siri, kriminal submadaniyat ta'siri; ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik hissi [2]. Shuningdek, Xitoy kriminolog

**(6th international scientific and practical conference)**

olimlariga ko'ra, o'smir jinoyatchiligi faqat huquqiy muammo emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy masala sifatida ham qaralishi zarur. Ular ta'kidlashicha, o'smirlarning huquqbuzarlikka moyilligi ko'p jihatdan quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Oilaviy muhit va tarbiya muammolari. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, ota-onaning yoki vasiyning yetarli darajadagi nazorati yo'qligi, oiladagi nizolar va psixologik zo'ravonlik o'smirlarning deviant xulq-atvorini shakllantiradi [Li, 2020].

Maktab va ta'lim tizimidagi kamchiliklar. Ba'zi hollarda o'quv muassasalarida intizomiy choralar qat'iy qo'llanilgani yoki ta'limning sifatsizligi o'smirlarda ijtimoiy norozilik va agressiya uyg'otishi mumkin [Zhang, 2019].

Iqtisodiy va ijtimoiy omillar. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari ko'proq qonuniy ish va ta'lim imkoniyatlaridan mahrum bo'lib, bu ularni noqonuniy yo'llarga moyil qiladi. Ayrim hollarda o'smirlar mehnat migrasiyasi jarayonida nazoratdan chetda qolishi ham xavf tug'diradi [Chen, 2021].

Axborot texnologiyalari va internet ta'siri. Xitoy olimlari aytishicha, onlayn o'yinlar, virtual jamoalar va ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy namuna ko'rsatuvchilari o'smirlarning xulq-atvoriga kuchli ta'sir qiladi. Shu bois kiberjinoyatchilik o'smirlar orasida tobora ko'paymoqda [Wang, 2022].

Jinoyatchi guruhlar ta'siri. Kriminologlar ta'kidlashicha, o'smirlar ko'p hollarda kattalar yoki tengdoshlari ta'sirida guruh bo'lib jinoyat sodir etadi. Bu ularning jinoiy submadaniyatni qabul qilish ehtimolini oshiradi [Liu, 2018].

"Ijtimoiy uyg'unlashuv modeli" ana shu muammolarni bartaraf etish orqali o'smirning jinoiy yo'ldan qaytishi mumkin, degan g'oyaga asoslanadi. Bu yerda jamoa, oila va davlat birgalikda harakat qiladi.

Model bir nechta yo'nalishni o'z ichiga oladi:

Oila bilan integratsiya: sud va probatsiya organlari mahkum o'smirlarning ota-onasi yoki vasiylarini tarbiya jarayoniga jalb etadi. Ota-ona javobgarligi huquqiy jihatdan mustahkamlangan (2020 yilda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun) [6].

Maktab va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik: jazoni ijro etish muassasalarida ham umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar dasturlari tashkil etiladi. Maktablar va mahalliy ta'lim muassasalari jazo muddati tugagan o'smirlarni qayta qabul qilishi shart.

Jamoatchilik ishtiroki: mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va NNTlar o'smirlarni jamoat ishlariga jalb qiladi. Bu orqali ularda ijtimoiy mas'uliyat hissi shakllantiriladi.

Psixologik integratsiya: psixologlar va sotsiologlar mahkum o'smir bilan individual ishlaydi, uning agressiya va ijtimoiy yolg'izlik tuyg'usini yumshatishga harakat qiladi.

Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, "ijtimoiy uyg'unlashuv modeli": o'smirlarning jamiyatdan uzilib qolishini oldini oladi; qayta ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtiradi; takroriy jinoyatchilik darajasini pasaytiradi.

2021 yilgi Xitoy Adliya vazirligi hisobotiga ko'ra, ijtimoiy uyg'unlashuv modeli qo'llanilgan o'smir mahkumlar orasida retsidiv darajasi 20%dan oshmagan, bu esa kattalar koloniyasidagi ko'rsatkichdan ancha past [7]. 2024 yil hisobotida alohida e'tibor o'smirlarga qarshi jinoyatlarga qaratildi. Sudlar jami 40 mingga yaqin ishni ko'rib chiqdi. Qator og'ir holatlarda: bolalarni o'g'irlash va savdo qilishda aybdor deb topilgan shaxslar, bolalarga nisbatan zo'rlash jinoyatida ishtirok etganlar, qonunga muvofiq o'lim jazosiga hukm qilindi. Shuningdek, Xebey provinsiyasida sodir etilgan o'quvchi o'ldirilishi ishida asosiy ishtirokchiga umrbod qamoq jazosi tayinlandi. Bu esa davlatning o'smirlarga qarshi jinoyatlarga mutlaqo murosasiz yondashuvini tasdiqlaydi.

Ushbu model BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"da belgilangan tarbiya va rehabilitatsiya tamoyillariga, shuningdek, UNODCning Restorative Justice dasturlariga mos keladi [4]. Shu jihatdan, Xitoy tajribasi milliy an'analar va xalqaro meyorlarni uyg'unlashtirishga yo'naltirilganini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Xitoyda o'smir jinoyatchilarga nisbatan jamoatchilik xizmati, probatsiya va ijtimoiy foydali mehnat kabi alternativ choralar keng qo'llaniladi. Bu orqali o'smirlar jamiyatdan uzoqlashtirilmaydi, balki uning ichida qayta ijtimoiylashtiriladi. Xalqaro ekspertlar bu amaliyotni o'smirlarda mas'uliyat hissini shakllantirish va ularning jamiyatga qaytish jarayonini yengillashtirishning samarali usuli sifatida baholaydilar.

Xitoy tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, bir tomondan davlat ijtimoiy uyg'unlashuv modeli orqali o'smir mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishga e'tibor qaratsa, ikkinchi tomondan o'smirlarga qarshi jinoyatlarda qattiq jazo siyosati yuritadi. Bu ikki yo'nalish uyg'unlashib, jinoyatchilikka qarshi kurashning ikki qirrasini shakllantiradi:

Profilaktika va tarbiya – o'smirlarni jinoiy muhitdan uzoqlashtirish, ta'lim va mehnat orqali ijtimoiy integratsiya qilish.

Qat'iy jazo siyosati – o'smirlarga qarshi jinoyat sodir etganlarga nisbatan maksimal jazo choralari qo'llash.

Natijada, Xitoy o'smirlar jinoyatchiligini kamaytirish va ularning jamiyatga qaytishida ijobiy natijalarga erishmoqda.

Shuningdek, Xitoy tajribasi shu jihati bilan ham ahamiyatliki, u o'smirlarni jazolashga emas, balki ijtimoiy tarbiya orqali qayta yo'naltirishga qaratilgan. Bu esa kriminologik nuqtai nazardan jinoyatchilikning oldini olishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Criminal Law of the People's Republic of China (Revised 2020). – Beijing: NPC, 2020.
2. United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (“Beijing Rules”), UN Doc. A/RES/40/33, 1985.
3. Zhao, R. Juvenile Justice in China: Balancing Rehabilitation and Punishment. – Journal of Asian Criminology, 2019.
4. UNODC. Handbook on Restorative Justice Programmes. – Vienna, 2020.
5. Chen, X. *Causes of Juvenile Delinquency in China*. – Chinese Journal of Criminology, 2020.
6. Law of the People's Republic of China on the Protection of Minors (Amended 2020).
7. Ministry of Justice of China. *Juvenile Justice Reform Report*. – Beijing, 2021.

